

KOMBINATORIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK FAOLIYATINI VARIATIV LOYIHALASHTIRISH METODIKASI

Xusanova Feruza Zoxidjonovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat pedagogika instituti,

feruza.xusanova81@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-1300-6623>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22159317>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kombinatorik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatini variativ loyihalashtirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligi faqat muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi bilan emas, balki turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ta'lim jarayonining tarkibiy komponentlarini o'zaro bog'lash, mavjud metodik imkoniyatlardan muqobil variantlarni hosil qilish va ular asosida optimal pedagogik yechimlarni loyihalashtirish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Tadqiqotda kombinatorik yondashuv ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va baholash usullarining turli kombinatsiyalarini hosil qilish asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik faoliyatini variativ loyihalashtirish vositasi sifatida talqin etilgan. O'zbekiston, MDH va xorijiy olimlarning kasbiy kompetentlik, faoliyat nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim, pedagogik loyihalashtirish hamda refleksiv amaliyotga oid ilmiy qarashlari asosida mazkur metodikaning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kombinatorik yondashuv, variativ loyihalashtirish, kasbiy-metodik faoliyat, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi, metodik kompetentlik, pedagogik loyihalashtirish, pedagogik modellashtirish, refleksiya, muqobil metodik yechim, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики вариативного проектирования профессионально-методической деятельности будущих учителей начального образования на основе комбинаторного подхода. В условиях современного высшего педагогического образования профессионально-методическая подготовка будущего учителя определяется не только овладением определёнными знаниями, умениями и навыками, но и способностью анализировать различные педагогические ситуации, устанавливать взаимосвязи между структурными компонентами образовательного процесса, формировать альтернативные варианты на основе имеющихся методических возможностей и проектировать на их основе оптимальные педагогические решения. В исследовании комбинаторный подход интерпретируется как средство вариативного проектирования профессионально-методической деятельности будущих учителей на основе создания различных комбинаций целей, содержания, методов, средств, организационных форм и способов оценивания обучения. На основе анализа научных взглядов учёных Узбекистана, стран СНГ и зарубежных исследователей в области профессиональной компетентности, теории деятельности, развивающего обучения, педагогического проектирования и рефлексивной практики раскрываются теоретико-методологические основы данной методики.

Ключевые слова: комбинаторный подход, вариативное проектирование, профессионально-методическая деятельность, будущий учитель начального образования, методическая компетентность, педагогическое проектирование, педагогическое моделирование, рефлексия, альтернативное методическое решение, профессиональная подготовка.

Abstract. This article discusses the issues of improving the methodology for the variable design of prospective primary education teachers' professional and methodological activities based on a combinatorial approach. In the context of modern higher pedagogical education, the professional and methodological preparation of a prospective teacher is determined not only by the acquisition of specific knowledge, skills, and competencies, but also by the ability to analyze various pedagogical situations, establish relationships among the structural components of the educational process, generate alternative options based on available methodological opportunities, and design optimal pedagogical solutions accordingly. The study interprets the combinatorial approach as a means of variably designing the professional and methodological activities of prospective teachers through the creation of different combinations of educational goals, content, methods, tools, organizational forms, and assessment techniques. Based on the analysis of scholarly perspectives of researchers from Uzbekistan, the CIS countries, and зарубежных scholars in the fields of professional competence, activity theory, developmental education, instructional design, and reflective practice, the theoretical and methodological foundations of this approach are substantiated.

Keywords: combinatorial approach, variable design, professional and methodological activity, prospective primary education teacher, methodological competence, pedagogical design, pedagogical modeling, reflection, alternative methodological solution, professional training.

Kirish. Bugungi kunda jahon ta'lim makonida kechayotgan raqamli transformatsiya, ta'lim mazmunining yangilanishi, kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi hamda ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurati pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy-metodik faoliyati ko'p qirrali va murakkab tizim sifatida namoyon bo'lib, undan nafaqat fan mazmunini puxta egallash, balki ta'lim jarayonini mustaqil loyihalashtirish, turli pedagogik vaziyatlarga mos metodlarni tanlash, ta'lim vositalarini samarali qo'llash va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ta'lim tizimida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega,

mustaqil fikrlaydigan, innovatsion faoliyat yurita oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan [2]. Mazkur vazifalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik faoliyatini takomillashtirish, ularda pedagogik vaziyatlarga mos ravishda mustaqil qaror qabul qilish va muqobil metodik yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh hamda mustaqil fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [3]. Ushbu me'yoriy-huquqiy asoslar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini faqat an'anaviy bilimlar bilan cheklamasdan, ularni pedagogik faoliyatning turli variantlarini yaratish va o'z faoliyatini zamonaviy talablar asosida loyihalashtirishga tayyorlash zarurligini taqozo etadi.

Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy-metodik faoliyatini variativ asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Variativlik pedagogik faoliyatda bitta qat'iy metodik modelga tayanishdan voz kechib, muayyan pedagogik vaziyat uchun bir nechta muqobil metodik yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bunda o'qituvchi ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va baholash usullarini pedagogik vaziyatning xususiyatlaridan kelib chiqib qayta tanlaydi va o'zaro bog'laydi.

Mazkur jarayonda kombinatorik yondashuvning didaktik imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Kombinatorik yondashuv turli elementlarni tanlash, tartibga solish va o'zaro birlashtirish orqali yangi variantlarni hosil qilish tamoyiliga asoslanadi. Pedagogik faoliyat nuqtayi nazaridan ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, texnologiyalari, vositalari, tashkiliy shakllari va baholash mezonlari o'zaro bog'liq metodik komponentlar sifatida qaraladi. Ushbu komponentlarning turli kombinatsiyalarini hosil qilish orqali muayyan pedagogik vaziyat uchun bir nechta metodik modellarni yaratish mumkin.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kombinatorik tushunchalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish masalalarining o'rganilishi kombinatorik fikrlashning tahliliy, mantiqiy va konstruktiv qobiliyatlarni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi [4]. Mazkur ilmiy qarashni kasbiy-metodik faoliyatga tatbiq etish orqali bo'lajak o'qituvchining pedagogik vaziyatni turli nuqtayi nazardan ko'ra olishi va bir maqsadga erishishning bir nechta metodik variantlarini ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Demak, kombinatorik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatini variativ loyihalashtirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy oliy pedagogik ta'lim oldida turgan dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, kombinatorik, variativ va loyihaviy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatini yaxlit tizim sifatida o'rganish va uni variativ loyihalashtirish metodikasini ishlab chiqish imkonini beradi.

O'zbekiston pedagogika ilmda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi kompetensiyaviy yondashuv asosida keng tadqiq etilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, kasbiy kompetentlik faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni amaliy faoliyatda

samarali qo'llash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy muammolarga mustaqil yechim topish qobiliyatini ham ifodalaydi [5]. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligi uning ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq loyihalashtirishi, ta'lim mazmuni va metodlarini tanlashi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi hamda natijalarni baholay olishi bilan tavsiflanadi.

O'zbekistonlik tadqiqotlarda metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida bo'lajak o'qituvchining mustaqil faoliyati, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi va turli metodik qarorlarni ishlab chiqishi muhim omil sifatida baholanadi [5]. Mazkur qarash kombinatorik yondashuvning mazmuni bilan uyg'unlashadi. Chunki kombinatorik yondashuv talabani tayyor metodik sxemani takrorlashini emas, balki pedagogik faoliyatning tarkibiy elementlarini ajratish, ularning muqobil variantlarini aniqlash va yangi kombinatsiyalarni yaratish jarayonini nazarda tutadi.

MDH ilmiy maktabining yirik vakili L.S. Vigotskiy ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab, ta'lim shaxs rivojlanishidan oldinda borishi va uning yangi imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi lozimligini ta'kidlagan [6]. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyasi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki dastlab talaba tayyor metodik namunalardan foydalanadi, keyinchalik esa ularni tahlil qilish, o'zgartirish va yangi pedagogik vaziyatlarga mos ravishda mustaqil loyihalashtirish darajasiga ko'tariladi.

A.N. Leontev faoliyat nazariyasida inson faoliyatini motiv, maqsad, harakat va operatsiyalarning o'zaro bog'liq tizimi sifatida izohlaydi [7]. Ushbu nazariy qarash bo'lajak o'qituvchining kasbiy-metodik faoliyatini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Kasbiy-metodik faoliyat ham ma'lum pedagogik maqsadga yo'naltirilgan, mazmunan va operatsion jihatdan o'zaro bog'langan harakatlar tizimidan iborat. Kombinatorik yondashuv esa mazkur faoliyatning tarkibiy qismlarini turli shakllarda tanlash va birlashtirish orqali pedagogik faoliyatning yangi variantlarini yaratishga xizmat qiladi.

V.V. Davydov rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasida o'quv faoliyatining asosiy natijasi faqat bilimlarni egallash emas, balki nazariy fikrlash va mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatining shakllanishi ekanligini ta'kidlaydi [8]. Ushbu g'oya tadqiqotimiz uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki kasbiy-metodik faoliyatni variativ loyihalashtirish jarayonida bo'lajak o'qituvchi tayyor metodik ko'rsatmalarga amal qilish bilan cheklanmaydi, balki pedagogik vaziyatning umumiy qonuniyatlarini tahlil qiladi, metodik komponentlarni aniqlaydi va ularning yangi kombinatsiyalarini mustaqil ravishda hosil qiladi.

D.B. Elkonin va V.V. Davydov maktabining rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasida o'qituvchi faoliyatining refleksiv xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining kasbiy rivojlanishi uning o'z faoliyatini tahlil qilishi, mavjud pedagogik usullarni qayta ko'rib chiqishi va yangi faoliyat usullarini o'zlashtirishi bilan bog'liq [9]. Shu sababli kombinatorik yondashuv asosida variativ loyihalashtirish metodikasida refleksiv faoliyat muhim tarkibiy qism sifatida qaraladi. Talaba yaratgan metodik variantlarini tahlil qiladi, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda zarur hollarda yangi kombinatsiyalar asosida metodik loyihani takomillashtiradi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik mazmun, metod va texnologiyalarning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. L.S. Shulman tomonidan ilgari surilgan pedagogik mazmun bilimlari —

Pedagogical Content Knowledge (PCK) konsepsiyasiga ko'ra, o'qituvchining professional bilimlari fan mazmunini bilish bilan cheklanib qolmaydi, balki mazkur mazmunni o'quvchilarga samarali yetkazish usullarini tanlash qobiliyatini ham qamrab oladi [10]. Bu esa kombinatorik yondashuv asosida mazmun va metodlarning turli pedagogik vaziyatlarga mos kombinatsiyalarini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

D. Schön refleksiv amaliyot nazariyasida professional faoliyat samaradorligi mutaxassisning o'z amaliy harakatlarini doimiy ravishda tahlil qilishi, faoliyat jarayonida yuzaga kelayotgan vaziyatlarni qayta baholashi va zarur hollarda qarorlarini o'zgartira olishi bilan bog'liq ekanligini asoslaydi [11]. Mazkur g'oya kombinatorik yondashuv asosida variativ loyihalashtirishning yakuniy bosqichi — refleksiv qayta loyihalashtirishning nazariy asosini tashkil etadi.

M. Mishra va M.J. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining pedagogik, mazmuniy va texnologik bilimlar integratsiyasiga asoslanishini ko'rsatadi [12]. Ushbu modelga ko'ra, o'qituvchining samarali faoliyati mazkur bilimlarning alohida mavjudligi bilan emas, balki ularning muayyan pedagogik vaziyatga mos ravishda o'zaro uyg'unlashuvi bilan belgilanadi. Mazkur qarash kombinatorik yondashuvning metodologik mohiyatiga mos keladi. Chunki bo'lajak o'qituvchi pedagogik, mazmuniy va texnologik imkoniyatlarni turli kombinatsiyalarda birlashtirib, variativ metodik modellarni ishlab chiqadi.

M.K. Warford tomonidan ishlab chiqilgan "o'qituvchining yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasida bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi mavjud tajriba bilan yangi professional imkoniyatlar o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir natijasida yuzaga kelishi asoslangan [13]. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida murakkab pedagogik vaziyatlarni yaratish, muqobil metodik yechimlarni ishlab chiqish va ularni amaliy faoliyatda sinovdan o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda matematik topshiriqlarning turli variantlarini yaratish, masalalarning shartlarini o'zgartirish va yangi vaziyatlarni modellashtirish o'quvchilarning kombinatorik hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan [14]. Ushbu ilmiy qarashni kasbiy-metodik faoliyatga tatbiq etish bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining metodik komponentlarni o'zgartirish, almashtirish va yangicha kombinatsiyalash orqali pedagogik faoliyatning turli variantlarini yaratish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirish asosida kombinatorik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatini variativ loyihalashtirish metodikasi pedagogik vaziyatni tahlil qilishdan boshlanishi belgilandi. Bunda talaba avvalo ta'lim maqsadi, o'quv material mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, yosh va individual xususiyatlari, mavjud resurslar va kutilayotgan natijalarni aniqlaydi.

Keyingi bosqichda kasbiy-metodik faoliyatning asosiy komponentlari ajratib olinadi. Ularga ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, pedagogik texnologiyalari, didaktik vositalari, tashkiliy shakllari va baholash usullari kiradi. Mazkur komponentlarning har biri bir nechta muqobil variantlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, ta'lim metodlari sifatida muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, didaktik o'yin, loyiha metodi yoki tadqiqot metodidan foydalanish mumkin. Tashkiliy shakl sifatida individual, juftlik, guruhli yoki jamoaviy faoliyat tanlanadi.

Baholashda formatif baholash, o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash yoki natijaviy baholashdan foydalanish mumkin.

Mazkur metodik komponentlarning turli kombinatsiyalarini hosil qilish orqali bir pedagogik maqsadga erishishning bir nechta metodik variantlari yaratiladi. Masalan, birinchi metodik variant muammoli vaziyat, guruhli faoliyat, vizual modellash va formatif baholash asosida tashkil etilishi mumkin. Ikkinchi variant didaktik o'yin, individual topshiriqlar, raqamli ta'lim vositalari va o'z-o'zini baholashni o'zida birlashtiradi. Uchinchi variant esa loyiha metodi, hamkorlikdagi faoliyat, tadqiqot topshiriqlari va reflektiv baholash asosida shakllantiriladi.

Bunday metodik faoliyat bo'lajak o'qituvchining pedagogik repertuarini kengaytiradi va uni yagona metodik sxemaga bog'lanib qolishdan saqlaydi. Variativlik o'qituvchining kasbiy faoliyatida moslashuvchanlikni ta'minlaydi hamda turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi [15].

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish, kontent-tahlil, pedagogik modellash, kombinatorik modellash, pedagogik loyihalashtirish, ekspert baholash, anketa-so'rov, suhbat, kuzatish va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Tajriba-sinov ishlari aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida tashkil etiladi.

Aniqlovchi bosqichda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatni variativ loyihalashtirishga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Shakllantiruvchi bosqichda kombinatorik yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik topshiriqlar, variativ metodik vaziyatlar, muqobil dars loyihalari, hamkorlikdagi loyihalash va reflektiv tahlil texnologiyalari qo'llaniladi. Nazorat bosqichida esa tajriba-sinov natijalari qiyosiy tahlil qilinib, ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi aniqlanadi.

Xulosa. Kombinatorik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatini variativ loyihalashtirish metodikasi zamonaviy oliy pedagogik ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodikaning asosiy mohiyati bo'lajak o'qituvchini tayyor metodik bilim va usullarni takrorlovchi subyektdan pedagogik faoliyatning yangi variantlarini mustaqil yarata oladigan, mavjud metodik imkoniyatlarni tahlil qiladigan va muayyan pedagogik vaziyat uchun optimal yechimni tanlaydigan mutaxassis sifatida shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, mustaqil fikrlashi, innovatsion faoliyatga tayyorligi va pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish zarurligini belgilaydi [1-3].

O'zbekiston, MDH va xorijiy ilmiy maktablar vakillarining qarashlarini tahlil qilish natijasida kasbiy-metodik kompetentlik pedagogik bilimlar, amaliy faoliyat, refleksiya, loyihalashtirish va innovatsion fikrlashning o'zaro integratsiyasi asosida rivojlanishi aniqlandi [5-15]. L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev va V.V. Davydovlarning faoliyat hamda rivojlantiruvchi ta'limga oid g'oyalari bo'lajak o'qituvchini faoliyat subyekti sifatida shakllantirishning metodologik asosini tashkil etadi [6-9]. L.S. Shulmanning pedagogik mazmun bilimlari konsepsiyasi, D. Schönning reflektiv amaliyot nazariyasi va M. Mishra hamda M.J. Koehlarning

TPACK modeli esa pedagogik, mazmuniy va texnologik komponentlarning o'zaro integratsiyasi kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashini ko'rsatadi [10–12].

Kombinatorik yondashuv mazkur komponentlarni yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi. Bunda ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, texnologiyalari, vositalari, tashkiliy shakllari va baholash usullari o'zaro bog'liq, biroq variativ xususiyatga ega bo'lgan metodik elementlar sifatida qaraladi. Ushbu elementlarning turli kombinatsiyalarini hosil qilish orqali muayyan pedagogik vaziyat uchun bir nechta metodik modellar ishlab chiqiladi.

Natijada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatini variativ loyihalashtirish pedagogik vaziyatni tahlil qilish, metodik komponentlarni aniqlash, muqobil variantlarni belgilash, ularni kombinatsiyalash, yangi metodik modellar yaratish, ularni ekspert va refleksiv baholash, optimal variantni tanlash, amaliyotga tatbiq etish va natijalarga ko'ra qayta loyihalashtirish jarayonlari asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, kombinatorik yondashuv asosida kasbiy-metodik faoliyatni variativ loyihalashtirish bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining analitik va konstruktiv fikrlashini, metodik ijodkorligini, pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligini, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodika bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash hamda ularning kasbiy-metodik kompetentligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
4. To'rayev F. Methodology for Developing Future Primary School Teachers' Understanding of Combinatorial Concepts Based on the Competency-Based Approach // *Scientific and Innovative Research in the Social and Humanitarian Sphere*. – 2026. – Vol. 3. – No. 7. – B. 139–143.
5. Rasulova N.Y. Factors for the Development of Methodological Competence of Future Teachers in the Educational Process // *Scientific Approach to the Modern Education System*. – 2026.
6. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Национальное образование.
7. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат.